



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:

TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**Ilmiy-uslubiy jurnal****Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

**TAHRIR HAY'ATI
A'ZOLARI:**

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti

Yarmatov Turg'unjon Joylovovich

E-mail: turgun.yarmatov@gmail.com

Ilmiy rahbar: Yarmatov Faxriddin Joylovovich

MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATIT TURK" ASARI ETNOFOLKLOR MANBA

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo hududidan yetishib chiqqan etnofolkloristika yo'nalishining yetuk namoyondalaridan biri Mahmud Qoshg'ariyning ilmiy merosi xususida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: mufasssirlar, muhaddislar, tarixchilar. Muhammad Qoshg'ariy, turkiy til, Javohirun-nahvfi lug'otit turk, Devonu lug'otit turk, Qutadg'u bilig.

ТРУД МАХМУДА КАШГАРИ «ДИВАНУ ЛУГАТ-ИТ-ТЮРК» КАК ЭТНОФОЛЬКЛОРНЫЙ ИСТОЧНИК

АННОТАЦИЯ

Данная статья предоставляет ценную информацию о научном наследии Махмуда Кашгари, одного из зрелых представителей этнофольклористики, возникшей в Центральной Азии.

Ключевые слова: Комментаторы, Ученые, Историки, Мухаммад Кашгари, турецкий язык, турецкий словарь Джавахирун-нахвфи, турецкий словарь Девону, Кутадгу билиг.

MAHMUD AL-KASHGARI'S WORK "DIVAN-U LUGAT-IT-TURK" AS AN ETHNOFOLKLORE SOURCE

ABSTRACT

This article provides valuable information about the scientific heritage of Mahmud Kashgari, one of the mature representatives of ethno-folkloristics, which emerged from Central Asia.

Keywords: Commentators, Scholars, Historians. Muhammad Kashgari, Turkish language, Jawahirun-nahv fi turkish dictionary, Devonu turkish dictionary, Qutadgu bilig.

KIRISH


Markaziy Osiyo hududi o'zining buyuk xalqlari tarixi bilan birgalikda yetishib chiqqan ko'pgina olim va ulamolari bilan jahonda munosib o'rin egallaydi. Ushbu mintaqadan ko'pgina tarixchi, etnograf va folklorshunos olimlar, mufasssirlar, muhaddislar hamda ilm-fan sohasining yirik iste'dod va namoyondalari yetishib chiqqan. Jumladan, etnografiya va folkloristika yo'nalishining yetuk namoyondalari biri Mahmud Qoshg'ariydir.

Islom madaniyati gullab-yashnagan XI asrda yashab, ijod etgan Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan[1]. Mahmud Qoshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining buyuk arboblariidan bo'lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davrining eng iste'dodli va atoqli olimlaridan biri bo'lgan

Mahmud Qoshg'ariy tilshunoslikka doir ikki nodir asar – "Javohirun-nahv fi lug'otit turk" ("Turkiy tillarning nahv (sintaksis) durdonalari, qoidalari"), "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar to'plami") asarlarini yaratdi. Afsuski, Mahmud Qoshg'ariyning birinchi asari bizgacha yetib kelmagan yoki hanuzgacha noma'lum. Ikkinchi asari – "Devonu lug'otit turk" esa XX asr boshlarida Istanbul (Turkiya)da topilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turkiy xalqlarga oid juda ko'plab noyob obidalar, jumladan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari, qadimgi turkiy, uyg'ur yozuvi yodgorliklari topildi. Uzoq vaqt davom etgan munozaralardan so'ng qadimgi turkiy bitiklar o'qilib, ularning turkiy xalqlarga mansub ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Bu davrda aniqlangan muhim asarlar orasida "Devonu lug'otit turk" ham bor.

Tadqiqot metodologiyasi. Asar topilganidan keyin qisqa vaqtda chop etildi, uni ilmiy asosda o'rganish boshlandi, turk, o'zbek, uyg'ur,



ozarbayjon, qozoq, ingliz, nemis, xitoy, rus va fors tillariga tarjima qilindi. Markaziy Osiyo xalqlarining XI asrdagi hayoti bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni keng qamrab olgan ushbu bebaho manba fanda alohida ahamiyatga ega ekanligi tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatib berildi[3].

XI asrda O'rta Osiyoda Buxoro, Samarqand va Shosh vodiysida, shuningdek Issiqko'l bo'ylarida hamda Qoshg'arda Qoraxoniylar davlatining poytaxtlarida ham yirik ilm-ma'rifat markazlari bo'lgan. Ma'lumki, ilgarilari hukmron doiralari va ularning farzandlarigina bilim olish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Shunga qaramay, O'rta Osiyo sharqidagi bu ilmiy markazlarning fan va madaniyat tarixidagi xizmatlari juda katta. Qoraxoniylar davrining me'morchiligi o'ziga xos bo'lgan. Raboti Malik, O'zgan maqbarasi, To'qmoqdagi minora shular jumlasidandir. Qoraxoniylarning poytaxt maktablarida Qur'on, hadis va shariat qonunlarini o'rgatish bilan birgalikda arab tili grammatikasidan ham chuqur ta'lim berilgan. Mahmud Qoshg'ariy ana shunday o'lkalarda va shunday sharoitda dunyoga keldi.

Shuni qayd etish lozimki, bunday ma'lumotlar bilan birga olim qabila va xalq tillarining bir-biriga munosabati, o'zaro ta'siri, aloqasi hamda o'sha davr turkiy adabiy tiliga nisbatan tafovut va yaqinligini ham ko'rsatgan[4]. Uning bobosi qoshg'arlik bo'lib, Bolasog'unga ko'chib kelib, turg'un bo'lib yashab qolgan. Uning bobosi Muhammad va otasi Husayn Issiqko'l bo'yidagi Barsg'on shahridan bo'lganlar. Otasi, xizmati yuzasidan bo'lsa kerak, Barsg'ondan Qoshq'arga ko'chgan va shu yerda o'rnashib qolgan. Shuning uchun Mahmudning ismi Qoshg'ariy bo'lib ketgan[5].

Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammadil Qoshg'ariy XI asr boshlarida Bolasog'unda (hozirgi Qirg'izistonning To'qmoq shahri yaqinida) tug'ildi. Uning bobosi qoshg'arlik bo'lib, Bolasog'unga ko'chib kelib, turg'un bo'lib yashab qolgan[6]. Uning bobosi Muhammad va otasi Husayn Issiqko'l bo'yidagi Barsg'on shahridan bo'lganlar. Otasi, xizmati yuzasidan bo'lsa kerak, Barsg'ondan Qoshq'arga ko'chgan va shu yerda o'rnashib qolgan. Shuning uchun Mahmudning ismi Qoshg'ariy bo'lib ketgan[7]. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniylar sulolasiga mansub bo'lib, otasi Husayn ibn Muhammad o'sha davrdagi Barsg'on shahrining amiri bo'lgan. Qoshg'ariy boshlang'ich

ma'lumotni o'z qishlog'ida, yuqori ma'lumotni Qoshg'ar madrasalarida olgan, arab, fors, turkiy kabi 7-8 tilni puxta egallagan[8]. Uning sevimli ustoz Husayn Xalifa bo'lgan. Bu ustoz to'g'risida shunday ma'lumotlar bor: "Qoshg'arda atoqli olim Abu Abdulloh ibn Husayn Qoshg'ariy yashagan, u fozil, zohid bir shayx edi. Ko'p asarlar yozgan. Uning o'g'li ham mo'tabar olimlardan edi"[9].

Mahmud Qoshg'ariy dastlab Qoshg'ar, keyinroq Samarqand, Buxoro, Nishopur, Marv va Bag'dodda tahsil ko'rdi, turli ilmlar, xususan, arab filologiyasi bilan shug'ullandi. U turkiy xalqlarning tiliga, turli qabila va urug'larning urf-odatiga, og'zaki badiiy ijodiyotiga qiziqdi. Yuqori Chindan boshlab Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga cho'zilgan katta masofani kezib chiqdi; urug', qabila va xalqlarning turmushini, ularning kasb-korini, urf-odatlarini, xususan, tili va og'zaki hamda yozma ijodiyotlarini o'rganib ma'lumotlar to'pladi, oddiy xalq ommasi vakillari, olimlar va shoirlar bilan suhbatlashdi. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariyning o'zi bunday deydi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirgiz (qirg'iz)larning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqni aniqlash uchun qildim... Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirgiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim"[10].

Bundan tashqari, Mahmud Qoshg'ariy "Devon"ni tuzishda alohida yo'l turganligini ham ta'kidlab o'tadi: "Qisqartirish va yengillatish masqadida bu asarni mendan oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida tartibda tuzdim. Bu ishda men asarning qiymatini oshirish, boshqalarga (foydalanuvchilarga) esa osonlik tug'dirish maqsadida puxta qo'llanma bo'lsin deb, har bir qabilaning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qiyosiy qoidalar tuzdim... so'ngra men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo'llanilishini qisqacha ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim"[11].

Qoshg'ariyning Buxoroda yashagan davri ham uning keyingi ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi kerak. Ma'lumki, Buxoro XI asrda

sharqning eng yirik ilmiy va madaniy markazi bo'lib hisoblangan. "Buxoro maktabi", "Buxoro uslubi" barcha olimlarga, barcha kichik ilmiy markazlarga o'rnak va andoza bo'lgan.

"Devon"ni o'rganar ekanmiz, Mahmud Qoshg'ariy nafaqat tarixchi va tilshunosli olim va shu bilan bargalikka yetuk etnolog va geograf ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Tahlil va natijalar. "Devonu lug'otit turk" asarining yana bir qimmatini shundaki, Mahmud Qoshg'ariy bu asariga dunyo xaritasini ilova qilgan. Alloma mazkur xaritasida yer yuzining markazini o'z ona yurti Issiqko'l bilan Bolasog'un oralig'idagi yerlarga to'g'irlab chizadi. Olim mazkur xarita va unda dunyo qabilalarining joylashishi haqida shunday yozadi: "Sharqdan boshlab har bir qabilaning turar joylarini birin-ketin tartib bilan ko'rsatdim. Rumdan kun chiqargacha musulmon va boshqalarni ko'rsatdim. Rumga yaqin birinchi qabila beyenen, so'ng qipchoq, o'g'uz, yaman, boshg'ird, basmil, so'ng qay, so'ng abaqu, so'ng tatar, so'ng qirg'iz keladi. Qirg'izlar Chin yaqinidadir. Bu qabilalarning hammasi Rum yaqinidan kun chiqar tomonga cho'zilgandir. So'ng chigil, so'ng tug'siy, so'ng yag'mo, hitoy "Chin"dir. So'ngra tovg'ach – bu "Mochin"dir. Bu qabilalar Janub va Shimol o'rtasidadir. Bu qabilalarning turar joylarini bu doirada ko'rsatdim".

Mahmud Qoshg'ariyning "Dunyo xaritasi"da ko'rsatilgan el-elatlar yashash joyi, daryo va ko'llar, tog'lar va dashtlar joylashuvi, masofa o'lchamlari bugungi kun o'lchovlariga g'oyat mos kelishi, umuman, allomaning bu ishi dunyo kartografiya fanida hozirgacha o'z ahamiyati va qimmatini saqlab qolayotganini V.V. Bartold, N.Yu. Krachkovskiy, A.N. Bernshtam, S. Mutallibov, A. German, I.I. Umnyakov, H. Hasanov, Z.A. Saidboboev kabi olimlar bir ovozdan e'tirof etadilar. Ayniqsa, H.Hasanov "Sayyoh olimlar" degan kitobida Mahmud Qoshg'ariyning geografik merosini keng sharhlab bergan.

Xulosa. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida X – XII asrlarda yuqori Chindan O'rta Osiyogacha bo'lgan katta hududda yashagan turkiy qabilalarning tillari, tarixi va etnografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ular yashagan hududning tabiiy-geografik sharoiti to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Demak, turkiy xalqlarning tarixini, madaniyatini, adabiyotini va san'atini, ularning yashash sharoiti va urf odatlarini o'rganishda

"Devonu lug'otit turk" juda katta ahamiyatga ega asar hisoblanadi. Bu asar ayniqsa turkiy tillarni, ularning rivojlanish xususiyatlarini, o'zaro bir-biriga ta'siri masalalarini aniqlashda juda muhim manba bo'lib hizmat qiladi. U faqat tilshunoslik asari bo'libgina qolmasdan, o'z davrining qobusnomasi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ofurov G'. Sharqjavohirlari. – T.: Ma'naviyat, 2000. – B. 38.
2. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – B. 124.
3. Xudoyberdiyev J. Mahmud Qoshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit turk" asarining o'rganilishi. – T., 2010. – B. 3.
4. Fozilov E. Mahmud Qoshg'ariy va uning devoni // O'zbek tili va adabiyoti, 1971. № 5 – B. 38.
5. O'sha joyda -B. 38.
6. Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1976. – B. 103.
7. Hasanov H. Sayyoh olimlar. – T.: O'zbekiston, 1981. – B. 117.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. V. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – B. 515.
9. Hasanov H. Mahmud Koshg'ariy. – T., 1963. – B. 5.
10. Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1976. – B. 104.
11. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk // 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. – T., 1960. – B. 47.